

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Qoramol suyaklarini qayta ishlash orqali qamish qirindili plitalar (DSP va DFP) uchun yuqori qovushqoqlikka ega bo‘lgan yelim olish texnologiyasi 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - yuqori sifatli yelimi ishlab chiqarishda maxsus texnologiya yordamida yangi turdagi yelim olishga erishiladi - qamish poyasi asosida ishlab chiqarilayotgan qurilish plitalari uchun yelim ishlab chiqarish texnologiyasi yaratiladi - qamish poyasini chuqur tahlil qilish hamda poya yuzasidagi polimer qatlamni distruksiyaga uchratish orqali yelimning ta'sirchanligini oshiriladi; - chorva mollaridan chiqadigan suyaklar, teri, shoxlari va tuyoqlarini kompleks qayta ishlash orqali yuqori sifatli yelim olinadi - maxsus texnologiya yordamida yangi turdagi yelim olinib, yuqori haroratga chidamli distruksiyaga uchramaydigan hamda tez kristallanmaydigan, qovushqoq yelim bundan tashqari inson salomatligiga zararli ta'sirlari bartaraf etiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Tadqiqotlar natijalari Uzsanoatqurilishmateriallari uyushmasi tashkilotlarida sinovlardan o'tkaziladi ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Uzsanoatqurilishmateriallari uyushmasi xulosasi olinadi. Natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalar asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Uzsanoatqurilishmateriallari uyushmasining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.